

Termiz - Sankt-Peterburg - Termiz yoʻnalishi boʻyicha aviaqatnovlar tiklanmoqda



Termizdan Sankt-Peterburg shahriga muntazam aviaqatnovlar tiklanmoqda. Reyslar 5 maydan boshlab har haftaning payshanba kunlari amalga oshiriladi

Termiz—Sankt-Peterburg yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi 1 million 961 ming 814 soʻmdan 2 million 160 ming 354 soʻmgacha belgilangan.

Termizdan uchish: 08:55 (Toshkent vaqti bilan)

Sankt-Peterburgga yetib borish: 12:20 (Moskva vaqti bilan)

Sankt-Peterburgdan uchish: 13:50 (Moskva vaqti bilan)

Termizga yetib kelish: 21:00 (Toshkent vaqti bilan)